

**CHO‘LPON HIKOYALARIDA IJTIMOY ADOLATSIZLIK
MUAMMOSINING BADIY TALQINI: “QURBONI JAHOLAT” HIKOYASI
MISOLIDA.**

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Mahmudova Gulshoda

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Abdulhamid Cho‘lponning “Qurboni jaholat” hikoyasi misolida ijtimoiy adolatsizlik muammosi badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda Eshmurod obrazi orqali jaholat, ishonchsizlik va adolatsizlikning inson taqdiriga ta’siri ochib beriladi. Maqolada asardagi konflikt va tragik yakun orqali muallifning g‘oyaviy pozitsiyasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulhamid Cho‘lpon, “Qurboni jaholat”, ijtimoiy adolatsizlik, jaholat, Eshmurod obrazi, konflikt, jadid adabiyoti, realistik tasvir, ma’naviy inqiroz.

O‘zbek adabiyotining XX asr boshlaridagi yirik vakili Abdulhamid Cho‘lpon milliy uyg‘onish davri adabiyotining eng muhim namoyandalaridan biridir. Yozuvchi 1897-yil Andijon shahrining Qatorterak mahallasida tavallud topgan. Cho‘lpon jadidchilik harakatining faol ishtirokchilaridan biri sifatida xalqni ma’rifatga chorlash, jaholatdan uyg‘otish va jamiyatni yangilash g‘oyalarini o‘z ijodining markaziga qo‘ygan. Cho‘lpon ijodi nafaqat badiiy jihatdan, balki ijtimoiy-falsafiy mazmuni bilan ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda inson taqdiri, jamiyatdagi adolatsizlik va ma’naviy muammolar chuqur yoritiladi.¹

Cho‘lpon ijodiy yo‘lini dastlab she’riyat bilan boshlagan. Uning ilk she’rlari orqali adibning hissiy kechinmalari, Vatan va millat taqdiri haqidagi o‘y-fikrlari namoyon

bo‘ladi. Keyinchalik u nasr janriga murojaat qilib, hikoya va romanlar yaratish orqali o‘z g‘oyalarini yanada kengroq va hayotiy voqealar

¹A. Cho‘lpon. “Yeurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar” Toshkent. 2022.

orqali ifoda etishga erishadi. Bu o‘tish uning ijodiy kamolotida muhim bosqich bo‘lib, yozuvchining jamiyat muammolarini yanada chuqurroq ochib berishiga imkon yaratgan.

Adib asarlarining asosiy yo‘nalishi — jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, jaholat, nodonlik va ma’naviy inqirozni fosh etishdir. U oddiy insonlar taqdiri orqali katta ijtimoiy muammolarni ko‘rsatib beradi va o‘quvchini fikrlashga undaydi. Cho‘lpon hikoyalarida ko‘pincha begunoh insonlarning nohaqlik qurboni bo‘lishi, shoshqaloq hukmlar va adolatsiz muhit keskin tanqid qilinadi.

Shu jihatdan “Qurboni jaholat” hikoyasi ham adib ijodida muhim o‘rin tutadi. Unda ijtimoiy adolatsizlik muammosi markaziy g‘oya sifatida berilib, jaholat va adolat o‘rtasidagi ziddiyat badiiy vositalar orqali chuqur ochib beriladi. Hikoya orqali muallif jamiyatdagi adolatsizlikning inson taqdiriga qanday og‘ir oqibatlar keltirib chiqarishini ta’sirchan tarzda ifodalaydi.

Mazkur hikoya jamiyatdagi jaholat, adolatsizlik va inson taqdiriga beparvolik kabi og‘riqli muammolarni chuqur badiiy ifoda etadi. Asar markazida turgan Eshmurod obrazi orqali muallif nafaqat bir bolaning fojiasini, balki butun bir jamiyatning ma’naviy inqirozini ko‘rsatishga erishadi.

Hikoyada voqealar Mo‘minjon tomonidan soat o‘g‘irlanishi bilan boshlanadi: “Sondugning og‘zi ochiq qolg‘on edi, soatni olub qo‘ynig‘a urdi.”² Bu yerda muallif o‘g‘rilikning asl sababchisini ko‘rsatib qo‘yadi, ammo jamiyat bu haqiqatni darhol anglamaydi. Dastlab arziyasdek tuyulgan bu voqea asta-sekin keskinlashib, fojiaga aylanadi. Eng achinarlisi shundaki, haqiqat aniqlanmasdan turib, gumon darhol Eshmurodga qaratiladi. Bu esa jamiyatda ishonch o‘rniga shubha ustun ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, otasining o‘z farzandiga ishonmay, uni jazolashi voqeaning ruhiy keskinligini

yanada oshiradi. Shu o‘rinda muallif ota-ona mehrining o‘rnini jaholat egallaganini ochib beradi.

Shu tarzda boshlangan ichki iztiroblar Eshmurodning ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. U nafaqat jismonan, balki ma‘nan ham sinadi. Oradan vaqt o‘tib, Eshmurod gazeta o‘qir ekan, jamiyat haqida chuqur xulosaga keladi: “Bu bizning Turkistonimiz g‘aflatdan uyg‘onurmi?

²<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-qurboni-jaholat-hikoya>

Yo‘qmi? ... Biz odam bo‘lmaymiz... bitamiz... inqiroz bo‘lamiz...”³ Bu satrlar orqali muallif butun jamiyatning ma‘naviy inqirozini ochib beradi. Gazetadagi fikrlar — xalqning ilmsizligi, jaholat girdobida qolayotgani — uning qalbida yanada katta iztirob uyg‘otadi. Endi uning shaxsiy dardi jamiyat dardi bilan tutashadi. Shu nuqtada asarda ilm va jaholat qarama-qarshiligi yanada ravshanlashadi.

Biroq voqealar aynan shu anglash jarayonida yanada fojiali tus oladi. Yana bir soat o‘g‘irlanadi va yana haqiqat tekshirilmasdan Eshmurod aybdor sifatida ko‘riladi. Bu holat endi tasodif emas, balki jamiyatdagi chuqur ildiz otgan adolatsizlikning natijasi sifatida talqin qilinadi. Natijada Eshmurod umidsizlikka tushadi va o‘z joniga qasd qiladi. Bu fojia — shunchaki bir insonning o‘limi emas, balki jaholat hukmron jamiyatning eng achchiq natijasidir.

Hikoya yakunida haqiqat ochiladi: asl o‘g‘ri boshqa kishi bo‘lib chiqadi. Ammo bu haqiqat kechikib keladi. “Haqiqati bilindiki... Eshmurod bo‘lmay, ... besoqol bolasi ekan. Bechora Eshmurod esa jaholatga qurbon bo‘lgan ekan.”⁴ Muallif aynan shu kechikkan haqiqat orqali o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi: adolat o‘z vaqtida qaror topmasa, uning qadr-qimmatini yo‘qoladi.

Shunday qilib, asar boshidan oxirigacha izchil rivojlanib, bir oddiy voqeadan katta ijtimoiy xulosaga olib keladi. Eshmurod obrazi esa jaholat qurboni sifatida o‘quvchi

qalbida og‘riqli iz qoldiradi. Muallif bu obraz orqali jamiyatni ogohlantiradi: ilm va adolat yo‘q joyda fojiadan qochib bo‘lmaydi.

Asar badiiy jihatdan zaif, albatta: voqealar sun‘iy, til ishlanmagan, dramatism nochor va hokazo. Lekin dastlabki hikoyasidayoq voqelikni mahzun, faje’ idrok etish, Turkiston musibatini teran anglashga intilish seziladi.⁵

³<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-qurboni-jaholat-hikoya>

⁴<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-qurboni-jaholat-hikoya>

⁵Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Ahmedov S. (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.–Toshkent: Ma’naviyat.

Xulosa qilib aytganda, “Qurboni jaholat” hikoyasi orqali Cho‘lpon ijtimoiy adolatsizlik muammosini chuqur badiiy mahorat bilan ochib beradi. Asarda inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat, haqiqatning kechikishi va jaholatning fojiviy oqibatlari yorqin tasvirlanadi. Eshmurod taqdiri esa o‘quvchini adolat, ilm va ongli tafakkur jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti ekanligi haqida chuqur o‘ylashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Cho‘lpon. “Yeurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar” Toshkent. 2022.
2. Qosimov B, Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Ahmedov S. (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.–Toshkent: Ma’naviyat.
3. Boboyev T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari.–Toshkent: O‘zbekiston.
4. Cho‘lpon. (1994). Asarlar II jild–Toshkent: Adabiy-badiiy nashr.
5. Quronov D. (2004). Adabiyotshunoslikka kirish.–Toshkent: A. Qodiriy.
6. Quronov D. (2004). Cho‘lpon nasri poetikasi.–T.: Sharq.
7. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulhamid-cho-lpon-1897-1938/abdulhamid-cho-lpon-qurboni-jaholat-hikoya>